ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ISMONOVA YORQINOY ABDUMUTALIB QIZI

HOZIRGI O‘ZBEK ROMANLARIDA BOLA OBRAZINING POETIK FUNKSIYASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 821.512.133'06.09-31

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi
Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi..... 3

Ismonova Yorkinoy Abdumutalib kizi
The poetic function of the image of a child in contemporary Uzbek novels..... 27

Исмонова Ёркиной Абдумуталиб кизи
Поэтическая функция образа ребенка в современных узбекских романов 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published work
Список опубликованных работ..... 56

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

ISMONOVA YORQINOY ABDUMUTALIB QIZI

HOZIRGI O‘ZBEK ROMANLARIDA BOLA OBRAZINING POETIK FUNKSIYASI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3744 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtiriladi.

Ilmiy rahbar:	**Jo‘raqulov Uzoq Haydarovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Quvvatova Dilrabo Xabibovna** filologiya fanlari doktori, professor
	Ahmedov Hoshimjon Hakimovich filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “ 1 ” may soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (342 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ 19 ” 04 kuni tarqatildi.

(2025-yil “ 19 ” 04 dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti tarixida badiiy obrazning xilma-xil namunalari yuzaga keldi va hozirga qadar yana shakllanib bormoqda. Xususan, badiiy obrazlar tizimida bola obrazi ham bugunga qadar ancha faollashdi va adabiyotda o‘z ahamiyatiga ega bo‘ldi. Bugungi adabiyotshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardan biri ushbu obrazning poetik funksiyasi, o‘rni va ahamiyatini tadrijiy o‘rganishdan iborat.

Dunyo adabiyotshunosligida bola obrazi, bolalik mavzusini tadqiq va tatbiq etish XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX arsning boshlariga to‘g‘ri keladi. XIX asrning o‘rtalariga kelib esa ancha takomillashadi. Bola ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida markaziy shaxsga aylanadi. Ko‘plab yozuvchilar bolalar va kattalar qarashlarini zidlab, “bolaning dunyoga bo‘lgan nuqtayi nazari” yordamida haqiqatga erishishga harakat qiladi. Bu esa obrazlar tizimida bola obraziga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

O‘zbek romanchiligidagi muhim bir xususiyat davr muammolarini shijoat bilan ko‘tarib chiqishda ko‘rinadi. Hayot muammolari, ularning badiiy tajassumi deyilganda, eng avvalo, davr va qahramon, xarakter kashfiyoti hamda ularning rang-barangligi, ijtimoiy g‘oya va uning badiiy talqin qilinishi kabi masalalar ko‘ndalang bo‘ladi. Ana shu masalalardan kelib chiqib hozirgi davr romanchiligimiz uchun xarakterli va ma’lum ma’noda yangilik tendensiyalari ham ko‘rinmoqda: adabiyotimizning dastlabki o‘n yilliklaridagi ayrim qahramonlar tasviridagi ijtimoiy faoliyatga o‘zini butunlay bag‘ishlab, shaxsiy hayotga yetarli ahamiyat bermaslik ular faoliyatida iz qoldirmay o‘tib ketishi mumkin bo‘lmagan hollar edi. Biroq endi inson shaxsiga keng e’tibor, uning turmushda yo‘l qo‘ygan nuqsonlari oqibatiga befarq qaramaslik talablari shaxs hayotini o‘z murakkabligida ko‘rsatishni taqozo qilmoqda. Bunday hol axloqiy tarbiyaga va milliy qadriyatlarga alohida e’tibor berilayotgan insondagi odamiylikning butun murakkabliklarini haqqoniy ko‘rsatib, asarning ta’lim-tarbiyaviy, ijtimoiy ahamiyatini oshirishga intilishning kuchayishi bilan bog‘liq hodisadir. Bunda esa bola obrazi yetakchi planga chiqdi. Bu kabi masalalarni Oybek, Rahmat Fayziy, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Luqmon Bo‘rixon kabi yozuvchilar romanlari misolida tahlil qilish mumkin. Vaholanki, “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”[1]. Shunday ekan, bugungi yangilanayotgan adabiyot, ularda aks ettirilgan badiiy obrazlarning milliy an’analarimizga bog‘liqligi, uning vazifasi va o‘rnini o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim va dolzarb muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabr-dagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi

[1] Мирзиёев Ш.М. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди // Халқ сўзи газетаси. – Тошкент, 2017 йил, № 153.

va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3652-son “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta’sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek romanlari ustida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Vaholanki, U.Normatov, H.Umurov, I.Yoqubov, U.Jo‘raqulov, B.Karimov, Z.Pardayeva, A.Rahimov, A.Qahramonov, P.Kenjayeva, Q.Yo‘ldoshev, U.Xo‘jamqulov, M.Boboxonov[2] kabi adabiyotshunos olimlarning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida, monografiya va maqolalarida bu muammoning ayrim qirralari, tafsilotlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Bola obrazi ko‘p yillardan beri o‘zbek va jahon adabiyotining asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda. Jahon adabiyotida xususan, rus adabiyotshunoslaridan T.M.Cherkasova, A.S.Matveyeva, N.Romanova, Y.S.Kamardina, Y.Y.Shestakovalarning nomzodlik dissertatsiyalarida ham bola obrazi, bolalik mavzusiga yuzlanilgan[3]. O‘zbek adabiyotshunoslaridan

[2] Норматов У. Болакай нигоҳида замон талатўплари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2012; Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon-business, 2021; Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури, – Тошкент: Nurafshon-business, 2020; Shu muallif. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Shu muallif. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Shu muallif. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (Қодирийшунослик асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б. 55; Shu muallif. Бадиий-эстетик тафаккур ривожи ва ўзбек романчилиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 323; Қаҳрамонов А. Меҳробдан чаён романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Йўлдошев Қ. Романда шахс тасвири // Шарқ юлдузи, 2016. 11-сон, – Б. 119; Хўжамқулов У. Бадиий портретда миллий руҳ ифодаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. 5-сон, – Б. 68; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

[3] Черкасова Т. Типология детского характера в творчестве Чарльза Диккенса. Дисс...канд. филол. наук. – М., 2007; Матвеева А. Мир ребенка в творчестве Чарльза Диккенса в контексте онтологической поэтики. Дисс...канд. филол. наук. – М.: 2009; Романова Н. Повесть Л.Н.Толстого «Детство» в контексте русских художественно-автобиографических повестей середины XIX века. Дисс...канд. филол. наук. – М., 2009; Камардина Ю. Роман Ч.Диккенса «Жизнь и приключения Николаса Никльби» как роман воспитания:

R.Barakayev, A.Qosimov, S.Babayeva, R.Tulabayeva, R.Umurzakov[4] dissertatsiyalari va monografiyalarida ushbu obraz tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan va bola obrazining tadrijiy takomili, genezisi qiyosiy aspektda tahlilga tortilgan. Lekin hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazi va uning poetik funksiyasi maxsus monografik planda o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Roman janrida bola obrazining shakllanish omillari, badiiy vazifalari, o‘rni va ahamiyatini XX asr o‘zbek romani misolida yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

badiiy-tarixiy, badiiy-ijtimoiy, falsafiy, psixologik, muhabbat romanlarida bola obrazining tarixiy-estetik asoslari, vazifasi hamda muammoning o‘rganilish jarayonlarini yoritish, XX asr o‘zbek romanlarida bola obrazining o‘rni va ahamiyatini aniqlash, ayni obrazlarning ilmiy tavsifi hamda tasnifini amalga oshirish;

Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy romanlaridagi bola obrazining maydonga kelishida biografik omillarning o‘rnini belgilash;

o‘zbek romanlaridagi bola obrazining oila muhiti, davr voqeligi va milliy psixologiya bilan poetik munosabati masalasini “Ikki eshik orasi”, “Jaziramadagi odamlar” romanlari tahlili asosida ochib berish;

XX asr o‘zbek romani tarixi va zamonaviy roman namunalarida bola obrazi poetik funksiyasiga doir nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XX asr o‘zbek romanlari, xususan, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon”, Oybekning “Quyosh qoraymas”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini hozirgi o‘zbek romanlaridagi bola obrazi, unga yuklatilgan vazifa, bola ruhiyatining o‘ziga xos qirralari, bola obrazida muallif “men”i, yozuvchi konsepsiyasi va qahramon ruhiyatining o‘ziga xosliklari masalalari talqini tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, biografik, sotsiologik, psixologik tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

проблемы жанровой поэтики. Дисс...канд. филол. наук. – М., 2011; Шестакова Е. Детство в системе русских литературных представлений о человеческой жизни XVII-XIX столетий. Дисс...канд.филол.наук. – А., 2007.

[4] Баракаев Р. XX аср бошларида ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 1994; Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-аҳлоқий категория сифатида (А. де Цент-Экзюперининг «Кичкина шаҳзода» ва Ч.Айтматовнинг «Оқ кема» асарлари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Бабаева С. Ўзбек ва АҚШ адабиётида болаликнинг бадиий талқини (Ғ.Ғулом ва М.Твен ижоди мисолида): Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2012; Тулабаева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадиий психологизм: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2019; Умурзаков Р. XX аср ўзбек қиссаларида бола образи: давр ва руҳият: Филол. фан. б. фалс. док. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021.

tarixiy-poetik, ijtimoiy-falsafiy, psixologik va muhabbat romanlarida bola obrazining tarixiy-estetik asoslari va badiiy vazifasi tadqiq qilinib, XX asr o‘zbek romanlarida ayni obrazning o‘rni va ahamiyati aniqlangan, uning ilmiy tavsifi hamda tasnifi amalga oshirilgan;

Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy romanlaridagi bola obrazining maydonga kelishi, takomilida biografik omillarning o‘rni ochib berilgan. “Mehrobdan chayon” romani bosh qahramoni Anvar obrazining bolalik syujetida muallifga xos jihatlar uchrashi biografik asoslangan. “Quyosh qoraymas” va “Hazrati inson” romanlaridagi bola obrazlari ham hayotiy misollardan olingan, degan xulosaga kelingan;

“Ikki eshik orasi”, “Jaziramadagi odamlar” romanlari tahlili asosida o‘zbek romanlaridagi bola obrazining oila muhiti, davr voqeligi va milliy psixologiya bilan poetik munosabati masalasi dalillangan;

O‘zbek romanlarida bola obrazining milliy va umumbashariy qadriyatlar negizida shakllangani, uning maishiy muhit va milliy psixologiya bilan poetik munosabati aniqlangan, badiiy vazifasiga doir nazariy xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

hozirgi o‘zbek romanlaridagi bola obrazining poetik funksiyasi Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy, O‘tkir Hoshimov, Luqmon Bo‘rixon asarlari misolida ochib berilgan;

yozuvchi romanlarida bola obrazining o‘rni va ahamiyati, urush bolasi obrazining biografik omillari, maishiy-psixologik xususiyatlari bola obrazi talqinida o‘rganilgan;

o‘zbek romanlarida bola obrazining milliy va umumbashariy qadriyatlar negizida shakllangani, uning maishiy muhit va milliy psixologiya bilan poetik munosabati ilmiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llanilgan ilmiy usullar va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, adabiyotshunoslikning zamonaviy ilmiy konsepsiyalari asosida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati matn ustida ishlash, badiiy asarni biografik tekshirish va ruhiy tahlilni amalga oshirish sohasidagi ilmiy ishlar, tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot ishida keltirilgan fikr-mulohazalar, xulosalar kattalar adabiyotida, xususan, bolalar adabiyotida ham bola obrazini tadqiq etish borasidagi ilmiy ishlarga manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya ishi materiallari respublika oliy o‘quv yurtlarining filologiya, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitiladigan fakultetlarida maxsus kurs yoki seminar mashg‘ulotlari o‘tkazishda, shuningdek, umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlarining adabiyot o‘qituvchilariga metodik qo‘llanma sifatida foydalanish mumkinligida namoyon

bo‘ladi. Tadqiqot ishi badiiy asar tahlili bo‘yicha darslik hamda o‘quv qo‘llanmalari tuzishda material bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy romanlaridagi bola obrazining maydonga kelishi, takomilida biografik omillarning o‘rganilgani va aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 23-oktabrdagi 04/1-2994-son ma’lumotnomasi). Natijada, tarixiy-poetik, ijtimoiy-falsafiy, psixologik va muhabbat romanlarida bola obrazining tarixiy-estetik asoslari va badiiy vazifasi, o‘zbek romanlarida bola obrazining o‘rni va ahamiyati muammosiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

O‘zbek romanlarida bola obrazining milliy va umumbashariy qadriyatlar negizida shakllangani, uning maishiy muhit va milliy psixologiya bilan poetik munosabati aniqlanganligi, badiiy vazifasiga doir nazariy xulosalar chiqarilganligiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan I-OT-2019-42 “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 23-oktabrdagi 04/1-2995-son ma’lumotnomasi). Natijada, Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy romanlaridagi bola obrazining maydonga kelishi, takomilida biografik omillarni o‘rganishga, o‘zbek romanlaridagi bola obrazining oila muhiti, davr voqeligi va milliy psixologiya bilan badiiy munosabati masalasiga doir materiallar bilan boyishiga xizmat qilgan;

“Ikki eshik orasi”, “Jaziramadagi odamlar” romanlari tahlili asosida o‘zbek romanlaridagi bola obrazining oila muhiti, davr voqeligi va milliy psixologiya bilan poetik munosabati masalasi hamda badiiy asarlar tahlili asosida chiqarilgan nazariy va amaliy xulosalardan Namangan viloyati televideniyesida to‘g‘ridan to‘g‘ri efirga uzatilgan “Guldasta” informatsion musiqiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy sport dasturida va “Oltin zamin” radiosining ma’naviy-ma’rifiy dasturida foydalanilgan. (Namangan viloyati televideniyesi 2023-yil 26-iyuldagi 04/1-1414-sonli ma’lumotnomasi) Natijada, teledastur va radioeshittirish uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

Tarixiy-poetik, ijtimoiy-falsafiy, psixologik va muhabbat romanlarida bola obrazining tarixiy-estetik asoslari, XX asr o‘zbek romanlarida bola obrazining o‘rni va ahamiyati, ilmiy tavsifi va tasnifi hamda badiiy vazifasi aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),

2019–2021-yillarga mo‘ljallangan I-OT-2019-42 “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe’l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2024-yil 23-oktabrdagi 04/1-2995-son ma’lumotnomasi). Natijada, Abdulla Qodiriy, Oybek, Rahmat Fayziy romanlaridagi bola obrazining maydonga kelishi, takomilida biografik omillarni o‘rganishga, o‘zbek romanlaridagi bola obrazining oila muhiti, davr voqeligi va milliy psixologiya bilan badiiy munosabati masalasiga doir materiallar bilan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta respublika, 1 ta xorijiy va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta maqola e’lon qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 2 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikkitadan paragrafni o‘z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Roman janri tarixida bola obrazi va uning ilmiy-nazariy talqinlari”** deb nomlanib, 1.1 paragrafda *“Roman obrazlari tizimida bola obrazining o‘rni”* masalasi tadqiq qilingan.

Badiiy adabiyotda bola obrazi va bolalik tasviri ruhiy poklik, ezgulik, samimiylik ramzi hisoblanib, asarning umumiy konsepsiyasi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Shunday ekan, bu obrazning adabiyotga kirib kelishi, kattalar adabiyotidagi vazifasi, xususan, jahon romanchiligida tutgan o‘rni va ahamiyatini aniqlash hamda tasniflash muhimdir.

Roman janri adabiyotning eng yirik va keng qamrovli janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janr o‘ziga xos uslubiy, mavzuviy va shakliy imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Roman, odatda, inson hayoti, jamiyat, madaniyat va tarixiy jarayonlarni keng miqyosda badiiy aks ettiradi. Bu janr o‘zida syujetning murakkabligi, qahramonlarning chuqur psixologik tahlili va mavzularning ko‘p qirraliligini mujassamlashtiradi. Roman janri o‘zining keng imkoniyatlari tufayli har bir davrda va madaniyatda o‘ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Bu

janr bugungi kunda ham inson hayotining turli qirralarini o‘rganish va aks ettirish uchun keng qo‘llaniladi.

M.Baxtin ta’kidlashicha: “Roman – voqelikni idrok etish va ifoda etishning o‘ziga xos bir shaklidir. Roman – voqelikka tamomila yangicha bir munosabatdir. Eposda voqelikka munosabatda og‘zaki ijro an’analariga rioya etish, voqelikni epik formulalar asosiga qurish, variantlilik muhim hisoblansa, romanda xalqning taqdiri, tafakkur tarixi va hayot haqidagi umumlashma xulosalari individual ijodkorning fantaziyasi, salohiyati, badiiy imkoniyati, tom ma’nodagi san’atkorligi orqali epik planda aks etganligini ko‘ramiz”[5].

Rus adabiyotshunosi, nazariyotchi olimi Valentin Xalizev o‘zining “Adabiyot nazariyasi” kitobida roman janrini o‘ziga xos jihatlari va funksional xususiyatlari bilan chuqur tahlil qiladi. Olim roman janrini murakkab va ko‘p qirrali adabiy shakl sifatida baholab, shunday deydi: “Roman sintetiklikka moyil janr sifatida o‘zidan oldingi janrlardan farq qiladi. U adabiyotni o‘zining rang-barangligi va murakkabligi, ziddiyatlar boyligi bilan hayotga yaqinlashtirishga, real hayotni haqqoniy poetik ifodalashga qodir janr hisoblanadi. Romanning dunyoni o‘rganish erkinligi chegara bilmas. Turli mamlakatlar va davrlar yozuvchilari esa bu erkinlikdan turli yo‘llar bilan foydalanadilar”[6].

Roman janrining muhim xususiyatlaridan biri ko‘p obrazlilikdir. Roman, odatda, ko‘plab asosiy va ikkinchi darajali qahramonlar, yordamchi personajlar, epizodlarni o‘z ichiga oladi. Har bir qahramonning o‘z dunyoqarashi, xarakteri va hayotiy yo‘li bor. Romanda ishtirok etayotgan bunday personajlar muallif bosh maqsadini amalga oshiruvchi asosiy qahramon xarakterini ochib boradi va asarning g‘oyaviy konsepsiyasi uchun xizmat qiladi. Uzoq Jo‘raqulov roman obrazlar tizimidagi an’anaviy obrazlar to‘g‘risida gapirar ekan, shunday deydi: “Romandagi obrazlar sistemasi ko‘plab personajlarning (faoliyat va nutqdagi) uzviy harakatlaridan tashkil topgan. Biror personaj yo‘qki, romanda muayyan maqsadga xizmat qilmagan, rudiment organ vaziyatida turgan bo‘lsin”[7]. Olimning bu fiklaridan kelib chiqib, roman janri obrazlar tizimida yana bir obraz borki, bu bola obrazidir.

Adabiyotda bola obrazining roman obrazlar tizimidagi o‘rni ko‘p qirrali bo‘lib, u asarda dinamikani, emotsional intensivlikni va muallif maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bola obrazi muallifning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalash, jamiyatning ma’naviy-axloqiy muammolarini ochib berish, insonning ichki dunyosini yoritish, uning eng pokiza his-tuyg‘ularini poetik aks ettirishda muhim vosita hisoblanadi. Roman obrazlar tizimidagi bola obrazining asosiy badiiy funksiyasi sifatida nazariy jihatdan quyidagilarni belgilash mumkin:

1. Ma’naviy-axloqiy ideallarni ifodalash. Adabiyotda bola obrazi muallifning ma’naviy-estetik qarashlarini ifodalashda, yosh o‘quvchilarning

[5] Бахтин М. Эпос ва роман (Романдаги талқин этиш методологияси ҳақида). Рус тилидан М.Олимов таржимаси // Филология масалалари, 2005, №3. – Б. 224.
[6] Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Высшая школа, 1999. – С. 211.
[7] Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Тошкент: Nurafshon business, 2020. – В. 39.

dunyoqarashini shakllantirishda, ularning axloqiy tamoyillarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Bola obrazi insoniy qadriyatlarni, halollik, mehribonlik, soddalik va poklik kabi fazilatlarni o‘zida mujassam etadi. Adabiyotda bola orqali ijtimoiy muammolarni tanqid qilish yoki ideal jamiyat tasvirini yaratish osonroq kechadi, chunki hayotning murakkabliklari va qiyinchiliklari hali bola xarakterini buzmagan, unda tabiiylik va samimiylik saqlangan bo‘ladi. Ayni xususiyatlarga ega bola obrazi asarda bolalar hayotini aks ettirgan holda, o‘quvchini ezgulik sari yetaklaydi.

2. Jamiyatga xos nozik muammolarni poetik aks ettirish. Bola obrazi ko‘pincha turli ijtimoiy muammolarni yoritishda va jamiyatning ichki mohiyatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Bola obrazi orqali yozuvchi o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy muhitini ko‘rsatadi. Masalan, bolalarning turmush tarzi, ularning muammolari va orzulari jamiyatning rivojlanish darajasini aks ettiruvchi mezon sifatida qaraladi. Bola qiyofasi orqali ijtimoiy, madaniy va axloqiy hodisalar badiiy talqin etiladi. Badiiy adabiyotda bola obrazi jamiyatning muayyan davridagi ijtimoiy, madaniy va psixologik holatini poetik aks ettirishning o‘ziga xos kalitidir. Shu nuqtayi nazardan, bola qiyofasini tahlil qilish jamiyatning ayni ahvolini, uning qadriyatlari va muammolarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

3. Metaforik idroklash yoki badiiy kodlash. Bunda bola ko‘pincha sof, beg‘ubor va samimiy qahramon sifatida tasvirlanib, kattalar dunyosining murakkabliklarini ochib berishga xizmat qiladi. Bola obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi tubanlik, shavqatsizlik, adolatsizlik, insoniy qadriyatlarning buzilishi kabi masalalarni metaforik ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, bola qiyofasi insoniyatning kelajagi, umidi va ideal jamiyat haqidagi orzularining ramzi sifatida ham qabul qilinadi. Ushbu obraz orqali muallif jamiyatdagi ma’naviy inqirozga qarshi kontrast yaratishni maqsad qiladi.

4. Syujetni rivojlantirish va dramatizmni kuchaytirish. Bola qiyofasi ba’zan asar syujetining markaziy qismini tashkil etadi yoki uni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu obraz badiiy asarda dramatik effekt yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni bola obrazi asar obrazlar tizimida asosiy konfliktlarni kuchaytirishga, dramatizmni oshirishga va syujet dinamikligini ta’minlashga samarali xizmat qiladi. Bu konfliktlar ichki kurashdan tortib jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy masalalargacha bo‘lishi mumkin. Bola xarakterining shakllanish jarayoni, uning dunyoni anglashga bo‘lgan intilishi voqealar zanjirini boyitib, o‘quvchining diqqatini jalb qiladi. Bu ayni obrazni syujetni rivojlantirishdagi o‘rnini belgilaydi. Beg‘ubor bolaning murakkab va hatto shafqatsiz dunyo bilan to‘qnashuvi, uning qiyinchiliklarni yengishga intilishi yoki mazlum ahvolga tushishi dramatik ta’sirni oshiradi.

5. Empatiya uyg‘otish va estetik vazifa. Dramatik vaziyatdagi bola his-tuyg‘ularining nozik va samimiyligi o‘quvchida achinish va hamdardlik hissini kuchaytiradi hamda asar mazmunini yanada ta’sirchan qiladi. Arastu ta’biri bilan aytganda, “Aslida asar shunday yozilishi kerakki, u sahnada ko‘rilmaganida ham bo‘lib o‘tadigan voqeani tinglovchi har bir kishi, xuddi

Edip haqidagi rivoyatni tinglaganday, hodisalarning o‘sib borishidan g‘am chekuvchiga nisbatan o‘zida hamdardlik sezsin va vujudi jivirlab seskansin”[8]. Syujetda tasvirlangan hayot murakkabliklari qarshisida qolgan bola obraziga nisbatan o‘quvchi hamdardlik his qiladi, bu esa asar mazmunini yanada emotsional qiladi va o‘quvchini chuqurroq o‘ylashga undaydi.

Umuman olganda, bola obrazining roli adabiyotda faqat yengil mazmun bilan cheklanmay, balki yuqorida sanab o‘tganimiz kabi chuqur ijtimoiy va ma’naviy savollarni o‘rtaga tashlaydi. Shu sababli, bola obrazi roman obrazlari tizimida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi.

Bobning 1.2 paragrafida *“O‘zbek romanida bola obrazi: tavsif, tasnif, talqin”* tadqiqiga bag‘ishlangan. Mazkur faslda o‘zbek romanlarida bola obrazining shakllanish bosqichlari, mualliflarning ifoda usullari, badiiy talqinlari, shuningdek, ayni obrazning xarakteri va badiiy vazifalariga ko‘ra tasniflanadi.

O‘zbek adabiyoti tarixida bola obrazi yozma adabiyot paydo bo‘lishidan avval, xalq og‘zaki ijodida yuqori planda bo‘lmasa-da, mavjud edi. Vaholanki, o‘zbek xalq dostonlari, eposlarda ham bola obrazi u yoki bu ko‘rinishda uchraydi. O‘zbek xalq dostoni “Alpomish”da bosh qahramon Alpomishning bolalik tasviri keladi. Muqaddas kitoblarda, xususan, Qur’oni Karimda ham payg‘ambarlar hayotini yoritishda ma’lum ma’noda ularning bolalik syujetiga murojaat qilinadi. O‘zbek mumtoz adabiyot namunalarida ham bola obrazi o‘z ahamiyatiga ega edi. Xususan, g‘azallarda bola shaxsiga murojaat ko‘plab uchraydi. Shoirlar ma’shuqasining ko‘ngli bolaniki singari pok ekaniga ishora qilish orqali uni turli shaklda qo‘llaydi. Masalan, Alisher Navoiy ijodida aynan bolalik kategoriyasiga katta ahamiyat bergan. Jadid adabiyotida esa, ayni obraz asarlarda estetik vazifa bajargani bilan muhim sanalgan. Umuman, bola obrazi adabiyotning har bir davrida turli xil vazifa va ko‘rinishda mavjud bo‘lgan va asta-sekin o‘zining obrazlik xususiyatiga erishgan.

O‘zbek romanchiligida bola obrazining shakllanishi va rivojlanishi mahalliy madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlarga chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, 20-asr adabiyotida bolaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy munosabatlari va ma’naviy-axloqiy qadriyatlari o‘z ifodasini topgan. Bola obrazlari orqali yozuvchilar bir tomondan insoniy tuyg‘ularni teranroq ochib bersa, boshqa tomondan o‘zbek xalqining boy an’analarini va tarbiyaviy merosini aks ettirishga intilganlar.

O‘zbek romanlarida bola obrazi qanday tasvirlandi, yozuvchi unga qanday vazifa yukladi va bola obrazining roman janrida shakllanish bosqichlari qanday kechdi, degan savol tug‘iladi. Shundan kelib chiqib, o‘zbek romanlarida bola obrazining shakllanish bosqichlari va yozuvchi tasvir usuli, badiiy talqiniga ko‘ra turlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

a) sho‘ro tuzumigacha bo‘lgan davr voqealarida tasvirlangan bola obrazi;

b) urush fojialari ichida tasvirlangan bola obrazi;

[8] Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2024. – Б. 45.

d) front orti mashaqqatlari, ruhiy qiyinchiliklar girdobidagi bola obrazi;

e) urushdan keyingi tinch hayot va mustaqillik davri fonidagi bola obrazi.

Sho‘ro tuzumigacha bo‘lgan davr voqealari doirasida tasvirlangan bola obrazi. Bunda yozuvchilar asarlarida, asosan, bola obrazi orqali davrning dolzarb muammolari ko‘rsatib berilgan.

O‘zbek adabiyotida bola obrazi milliy tarix va an’anaviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Sho‘ro tuzumigacha bo‘lgan davr voqealari tasvirlangan asarlarda bola qiyofasi, asosan, ijtimoiy adolatsizliklar, oilaviy muhit va yangicha islohotlar jarayonlari fonida aks etdi. Ushbu obraz orqali mualliflar jamiyatning muammolari, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning yo‘qolishi yoki saqlanib qolishi kabi masalalarni o‘quvchiga yetkazishga intiladilar. Masalan, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanidagi bolalar orqali bo‘yiga yetgan qizlarning ko‘chada yolg‘iz yurmasligi, ayni davrda chechak kasalligidan nobud bo‘lgan qashshoq oila bolalari taqdiri hamda bola savdosi va quldorlik masalasi kabi davrning ijtimoiy muammolarini yoritishda foydalangan.

Oybekning “Qutlug‘ qon” romani ham o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutib, unda sho‘ro tuzumigacha bo‘lgan davr voqealari keng yoritilgan. Roman, asosan, o‘sha davrda yashagan xalqning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotini aks ettiradi. Bola obrazi esa bu asarda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u milliy o‘zlik, tarbiya, shaxsiy rivojlanish va o‘z davrining murakkabliklarini ko‘rsatishda vosita sifatida qo‘llangan. Buni asarda Shoqosimning yetim bolalari, Shokir ota va Mirzakarimboyning nabiralari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Urush fojialari ichida tasvirlangan bola obrazi. Urushdan eng ko‘p aziyat chekkanlar qatorida, avvalo, bolalar turadi. Chunki ular hayotining eng shirin davrini, ya’ni bolaligini urush davrida boy beradi. O‘zbek romanlarida urush fojialari ichida tasvirlangan bola obrazi inson hayotining eng nozik va qiyin jihatlarini aks ettirib, urushning ma’naviy, psixologik va ijtimoiy oqibatlarini chuqur ochib beradi. Bunday asarlarda bolalar ko‘pincha urush sharoitida o‘z orzu-havaslaridan voz kechishga majbur bo‘ladi, erta ulg‘ayadi va yashash-kurashish zaruratini boshdan kechirishadi.

Oybekning “Quyosh qoraymas” romanidagi Zina (Zinaida) va Misha (Mixail) aynan urush hududida va urushda ishtirok etuvchi bola obrazlariga misol bo‘ladi. Adib aynan urushning dahshatli qiyofasini tasvirlashda bola obrazidan foydalangani qatori, asarning bosh qahramoni Bektemirning o‘zbekona xarakteriga xos bolajon ekanligini ko‘rsatishda ham bola obrazi ahamiyatli bo‘ladi. 4 yoshli Zina urush nimaligi tushunmagan, qalbida go‘daklarga xos soddalik, ishonuvchanlik saqlanib qolgan bola bo‘lsa, Misha undan farqli ravishda o‘z qismatiga tan bergan, bolaligini yo‘qotgan va endi atrofga kattalar ko‘zi bilan qaraydigan jasur bola obrazida tasvirlangan. Ushbu romanda urush va uning dahshatli asoratlari bola nigohida qanday muhrlanib qolishi va unga munosabati aks ettirilgan.

Front orti mashaqqatlari, ruhiy qiyinchiliklar girdobida tasvirlangan bola obrazi. Urush davri asarlari, asosan, urush hududidagi voqealar hamda

urush ortidagi mashaqqatlarni qamrab olgan. Chunki urushning dahshati nafaqat urush hududida balki, urushdan minglab chaqirim yiroqda yaqqol sezilib turgan. Vaholanki, ko‘chalarda xor-u zor bo‘lgan, bir burda non izlab sarson yurgan, maktabni ham unutib, kun-u tun mamlakat g‘alabasi, urush qatnashchilarining qimmatli hayoti uchun tinim bilmay dalalalarda, zavodlarda ishlagan bolalarning qayg‘uli hayoti tasvirlangan asarlardir. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanidagi qahramonlar: Muzaffar, Olimjon, Robiyaning bolalik syujetlari, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanidagi yetim bolalar obrazlarida aks etgan ruhiy kechinma va iztiroblar – tashqi muhitdan aziyat chekish, beg‘ubor damlarning erta boy berilishi kabi jihatlar bir-biriga yaqin bola obrazlarini tashkil qiladi. Buning asosiy sababi esa davr va muhitda ro‘y bergan ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarning natijasidir.

Urushdan keyingi tinch hayot va mustaqillik fonida tasvirlangan bola obrazi. O‘zbek romani taraqqiyotining ikkinchi davri urushdan keyingi yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davr o‘zbek romanida zamonaviy mavzu tomon jiddiy burilish ko‘zga tashlanadi. Romannavislarimiz zamonaviy mavzuni yorqinroq va chuqurroq yoritish maqsadida yangi-yangi shakllar topishga, turli tasviriy vositalardan o‘ziga xos tarzda foydalanishga, badiiy kashfiyotlar qilishga intildilar. Shu intilishning eng yaxshi samaralari sifatida Parda Tursunning “O‘qituvchi”, Asqad Muxtorning “Opa-singillar”, “Chinor”, Odil Yoqubovning “Diyonat”, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” kabi romanlari vujudga keldi.

Urushdan keyingi yillarda yaratilgan asarlarda bola obrazi ham murakkab hisoblanadi. Zero, urushning hali oqibatlari ketmagan bir paytda odamlar ruhiyatida, ayniqsa, bolalar ruhiyatida ham evrilishlar sodir bo‘layotgan edi. Shunday ekan, urush davridan keyin yaratilgan asarlar inson ruhiyati bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlar bilan alohida o‘rin egallaydi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar, “Mehrobdan chayon”, Cho‘lponning “Kecha va kunduz”, Oybekning “Qutlug‘ qon”, “Quyosh qoraymas”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson”, O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanlaridagi bola obrazining tarixiy asosi, psixologik xarakteri va badiiy vazifasini quyidagicha tasniflash mumkin:

a) milliy tanazzul davri va mustamlaka bolasi obrazi;
b) qashshoq oila bolasi obrazi;
d) urush bolasi obrazi;
e) urush ortidagi bola obrazi;
f) roviy bola obrazi.

Umuman olganda, bola obrazi o‘zbek romanida milliylik va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglatish, jamiyatning axloqiy-ijtimoiy muammolarini o‘rganish uchun muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu obrazlar nafaqat yozuvchi mahoratining ko‘zgusi, balki o‘quvchi qalbiga yaqin qiyofa sifatida ham e’tiborga loyiqdir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“XX asr o‘zbek romanida bola obrazining ijtimoiy, psixobiografik omillari va funksiyalari”** deb nomlangan

bo‘lib, 2.1 §da *“Abdulla Qodiriy romanlarida qahramonning bolaligiga doir epizodlar”* masalasi tadqiq qilingan. Abdulla Qodiriy romanlarida qahramonning bolaligiga doir syujetlar tahlilga tortilgan.

Badiiy asarda ijodkor ruhiy kechinmalari, ko‘rgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari yoki turli iztirobli hodisalar aks etishini, bunda biografik voqelikning izi asarlarda qolishini hech kim inkor qilmaydi. Yozuvchi psixobiografiyasi qaysidir ma’noda uning badiiy asarlaridagi voqea-hodisalar bayoni, yaratgan obrazlari tizimida o‘z ifodasini topadi. Bunday individuallik san’at asarining orginalligini, o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Bu esa, asarni tahlil etishda bevosita yozuvchi hayoti va tarjimayi holiga oid ma’lumotlarni ham bilishni talab etadi. Bunda, albatta, biografik metodga tayaniladi.

Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi bosh qahramon va uning bolalik syujetini tahlil qilib o‘rganar ekanmiz, avvallo, bunda biografik metodga ham tayanishimiz o‘rinli bo‘ladi. Chunki Anvar obrazida biz Abdulla Qodiriyning ayrim xususiyatlarini, xarakter va ruhiyatini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Abdulla Qodiriy bolalik chog‘larida mahalliy eski maktabda boshlang‘ich ta’limni olganligi, yosh bo‘lishiga qaramay, juda tiyrak va o‘ta qiziquvchan bo‘lganligi, kitoblar o‘qishga o‘chligi haqida bir qancha ma’lumotlar bor.

Abdulla Qodiriy maishiy muhit va oiladagi vaziyatlarning bola ruhiyatiga ta’siri, bolaning ichki kechinmalari, og‘ir turmush tarzi va kelajakka bo‘lgan umidning o‘zi yo‘qligi taqdirida ham xulqi, odobi, tirishqoqligi va bolalarcha sof insoniy tuyg‘ulari bilan e’tiborga tushgan Anvarning bolalik syujetida ko‘rsatib bergan.

Anvarning dunyoga kelishi barcha bolalar tug‘ilganidagi kabi quvonchli hodisa bo‘lmagan, aksincha, ota-onasining tilaklariga qarshi, faqat ularning baxtsizlik va qashshoqliklariga xizmat qilguvchi bo‘lib tug‘ildi. Yetti sakkiz kunlab dunyoga “tashrifi” sir bo‘lib qolgan, ohorliq yangi yo‘rgak ko‘rmagani yetmagandek, og‘alaridan birining eski beshigiga to‘qqizinchi kun deganda “tiqil”gan, yigirma kundan oshsa-da bolaga ism qo‘yish ota-onasining hayolidan ham o‘tmagan va bu vazifani o‘n ikki yoshli opasi Nodira ado etgan.

Islomda har bir narsaning go‘zal bo‘lishiga alohida ahamiyat beriladi. Bunda Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari asos bo‘ladi: *Ibn Ma’sud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:* **“Rasulullоh sollalohu alayhi vasallam dedilar: “Albatta, Alloh go‘zaldir va go‘zallikni sevadir”**[9].

Ahmad va Muslim rivoyat qilganlar: Binobarin, musulmon inson barcha narsada go‘zallikni ko‘zlashi kerak. Jumladan, bolalarga ism qo‘yishda ham.[10]

Qodirmuhammad bobo Abdulla Qodiriyga Abdulla deb ism qo‘yishiga bir g‘aroyib voqea sodir bo‘lganligini yozadi, Ibrohim G‘afurov o‘zining “Qodiriy siymosi” nomli maqolasida. “Qodirmuhammad bobo bir kuni iliq kuzakda oftobro‘ya ayvonda asr nomozidan so‘ng Qur’on tilovat qilib o‘tirardi. U

[9] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Бахтиёр оила. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2018. – Б. 292.
[10] Ko‘rsatilgan manba. – B. 292–293.

ilgaridan Qur’onning Maryam surasini sevar va bot-bot o‘qirdi. Mana bugun ham Maryamga Xudoning xabari kelganda, u qalbi iyib ko‘z yoshlarini tiyolmadi, hiqillagancha o‘qiyverdi, “qola inni Abdullohi niyal Kitoba va ja’alani nabiyan va ja’alani muborakan...” oyatiga kelganda, birdan sergaklandi va o‘qishdan to‘xtab o‘ylanganda tek qotdi.

“Men Alloh bandasiman, u menga kitob ato etdi va menga xabar yetkazdi, yana meni barokatli qildi” (Maryam, 30-31). Otam Hojimuhammad rahmatli menga Qodirmuhammad deb ot qo‘ydi... Alloh meni siyladi, qadrli qildi. Xayriyatki, Josiyat bu kunlarda pishib turibdir... Xudo xohlasa, o‘g‘il tug‘adi... qutratingdan o‘rgilay... mana ism... ul o‘g‘ilning ismini Allohdan so‘ragayman... ha, Abdulla bo‘lgay, men bitirolmagan ishlarni ul arjumandi zamona bitirgay, inshaolloh! U tizzasidagi kitobni jigarrang saxtiyon jildga soldida, peshonasiga bosib, so‘ng ortidagi tokchaga qo‘ydi”[11].

Ko‘rib turganimizdek, bolaga qo‘yilgan ism, unga qilingan yaxshi niyat va duolar kelgusida o‘z samarasini, albatta, beradi. Vaholanki, Abdulla Qodiriyning ulug‘vor ishlari padari buzrukvori tomonidan unga ism qo‘yilganda, bashorat qilingandek bo‘lib chiqdi. Ya’niki, ismiga monand buyuk yozuvchi va shaxs maqomiga yetdi.

“Mehrobdan chayon” romanida Anvar obrazida ham xuddi shu holatni kuzatamiz. Ota-onasi tomonidan Anvarga ism qo‘yilmagan bo‘lsa-da, o‘z yaqinlaridagi mahdumlardan birining bolasini yaxshi kiyimi, ayniqsa, yoqimlik eshitilgan “Anvar” ismiga suqlanib, havaslanib yurgan opasi Nodira yangi chaqaloq ukasining otini “Anvar” deb ataydi. 12 yoshli qizaloqning havasi chinga aylanib, kelgusida Anvar xuddi opasi xohlagandek, mahdum qo‘lida tarbiya topadi, uning xonadonida istiqomat qiladi.

Abdulla Qodiriy Anvar ruhiyatini, uning ko‘nglidan o‘tayotgan ichki kechinmalarini do‘sti Nasimga bag‘ishlab yozgan marsiyasida yaqqol ko‘rsatib bera olgan.

Nasimim ketdi olamdin meni qayg‘u aro tashlab,
Ko‘zimdin oqsa xun hech bir ajab yo‘q, chunki qon yig‘lar.

Jahonda erdi tanho men yatimg‘a hamnishin, dildor
G‘ariblikning diyorida adashkan notavon yig‘lar...”[12].

Shu o‘rinda shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, Anvar tomonidan aytilgan marsiya o‘zbek roman janrida bola tilidan aytilgan birinchi marsiyadir. Ushbu marsiyaning hajmi ham aynan bola tiliga mos bo‘lib, uning katta yoki uzun satrlarga ega emasligi ahamiyatsiz. Buni yaxshi bilgan Abdulla Qodiriy aynan bola uchun, bola tiliga mos bo‘lgan marsiya yozib, uni asarga kiritadi. Bu esa, birinchidan, asarning salmoqdorligini oshirgan bo‘lsa, ikkinchidan, Anvar obrazining yorqin xususiyatlarini ochishda ahamiyatli bo‘lgan.

[11] G‘afurov I. Qodiriy siymosi. (O‘tkan kunlar). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 6–7.
[12] Қодирий А. Меҳробдан чаён. – Тошкент: Илм-зиё, заковат, 2009. – Б. 59.

Bobning ikkinchi paragrafi *“Oybekning “Quyosh qoraymas”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanlarida urush bolasi obrazi va uning biografik omillari”* masalasi tadqiqiga bag‘ishlangan.

Bolaligi urush yillariga to‘g‘ri kelgan bir avlod borki, ularni urush bolalari deb atashadi. Bu atama esa urushdan keyingi yillarda shiddat bilan adabiyotga kirib keldi. Bu bizga urush bolasi obrazi nomi bilan ma’lum. Bu obrazning adabiyotga kirib kelishi Ikkinchi Jahon urushi haqidagi asarlarda bolalarning jasorati va vatanparvarligining namoyon bo‘lishini ko‘rish, muallifga urushning dahshatli qiyofasini bola nigohi bilan tasvirlab berish imkonini berdi. Vaholanki, urush haqidagi asarning yanada ishonchli va ta’sirli chiqishida bola obrazining ahamiyati katta bo‘lgan.

Urush bolalari haqidagi asarlarni adabiyotshunos olimlar “ular qaysi turdagi urush bolalari” ekanligiga asoslanib tasniflaydilar. An’anaviy ravishda urush bolalarining butun avlodini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

a. Frontdagi bolalar;
b. Qamaldagi Leningrad bolalari;
d. Ishg‘ol va fashistik konslagerdagi bolalar;
e. Front ortidagi bolalar.

Sanab o‘tilganlarni hisobga olib, bolalarning jasorati va vatanparvarligini ko‘rsatuvchi adabiy asarlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a. Frontdagi bolalar haqida she’r va nasr;
b. Qamaldagi Leningrad bolalari haqida she’r va nasr;
d. Konslager va ishg‘oldagi bolalar haqida she’r va nasr;
e. Front ortidagi bolalar haqida she’r va nasr.

“Quyosh qoraymas” romanining mavzusi Ikkinchi Jahon urushidagi voqea-hodisalar, frontdagi askarlar hayoti va achchiq taqdiri haqidadir. Asarning bosh qahramoni Bektemir obrazini yanada yorqinroq tasvirlash, uning insoniylik hislatlarini yanada ochiq gavdalantirish uchun muallif asarga 3-4 yashar bola, ya’ni Zina obrazini kiritadi. Bu obraz nafaqat bosh qahramon xarakterini ochib berishda balki, urushning dahshatli manzarasini namoyon etishda ham ahamiyatli hisoblanadi.

Badiiy psixologizmlar orqali asar qahramoni ruhiyati tasvirlanib, personaj ichki tuyg‘ular va kechinmalar egasiga aylantiriladi. Bu orqali esa insonning badiiy aksi to‘laroq yaratiladi. “Quyosh qoraymas” romanida ham psixologizmlarga misollarni ko‘plab uchratish mumkin.

Asarda yana bir katta ahamiyatga ega bo‘lgan “urush bolasi” obrazi bor. Ushbu bola go‘yoki kattalardek fikrlaydigan, hayot uni tez ulg‘aytirib qo‘ygandek qilib tasvirlangan. Aslida ham shunday. Chunki urush tufayli bolalikdan ayrilgan bolalar hayot mashaqqatlari oldida erta ulg‘ayib qolishgandi.

Garchi o‘n ikki-o‘n uch yashar bo‘lishiga qaramay, bolakay Misha jasur va uddaburonligi bilan askarlarni lol-u hayron qoldiradi. U xuddi kattalardek fikrlaydi va harakat qiladi. Urush qiyofasini bolakayda bergani uchun ham adib uni shunday tasvirlaydi. Masalan, bolaning hayotida birinchi marta ko‘rib turgan askarlar bilan suhbatini olaylik:

“– Xo‘sh o‘rtoq jangchilar, yo‘l bo‘lsin? – so‘radi u go‘yo yordamga hozirdek, jiddiy va mag‘rur.

– O‘zing kimsan, o‘rmonning ho‘jayinimisan? Qani, ikki og‘iz aqlli gap qil-chi, – dedi Gluxov quvonib.

– Bilaman, sharqqa yo‘l qidirasiz, men bilan yuring. Bundan boshqa yana qanday aqlli gap bo‘lishi mumkin? – dedi bola”[13].

Yana bir o‘rinda ham bola o‘zini xuddi kattalardek tutib gapiradi. *“Yuringlar, og‘alar, biz bu yerda buvimizning uyida emasmiz. Ah, boyoqish qizcha so‘lib qolibdi-ku, qani, menga bering-chi”*[14].

Kichik bir bolakay qanchadan qancha adashib qolgan yoki dushman qo‘lidan qochgan jangchi va komandirlarni kimsasiz o‘rmondan xatarsiz o‘tkazib qo‘yadi. Bu uning uchun burch va mas’uliyatdek edi.

Urush tufayli millionlab bolalar yetim bo‘lib qoldi. “Urushdan jabr ko‘rgan 1,5 mlndan ortiq keksalar, ayollar va bolalar respublikamizga ko‘chirib keltirilgan. Ularning 250 mingdan ziyodi ota-onasidan ayrilgan bolalar edi”[15]. Mana shu 250 mingdan ziyod yetim bolalar qismatini Rahmat Fayziy “Hazrati inson” romani orqali ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

Adib urush dahshatlarini tasvirlar ekan, bunda, albatta, bola tilidan ham foydalangan. Masalan, chamasi olti yoshar bo‘lgan Vityaning bomba haqidagi gaplarini olaylik:

“ – Bombaning tushishi judayam qiziq bo‘ladi. Vizillagani-chi, odamning ichidayam bilinib turadi, boshdan boshlanib, qoringacha tushib, oyog‘ingizgacha eshitiladi. Juda g‘alati. Innaykeyin, gum etib...”[16].

Bu yerda bolalarga xos soddalik, qiziquvchanlik va go‘llikni anglash qiyin emas. Vitya bomba tushish jarayonini ham qiziqtirib, ham nima ekanligini yaxshi tushunmaganday tasvirlab bermoqda. Vaholanki, buni eshitib turgan Mehrinisa va Mahkam otalar daxshatli manzarani tasavvur qilib, butun badani titrab ketgandi. Bola uchun esa buni aytib berish shunchaki qiziqarli. Aynan shu narsa ham bolaga xos bir xislatdir. Buni bilgan yozuvchi bola qanday bo‘lsa, shunday, o‘z tilida tushuntiradi.

“Bola obrazi badiiy funksiyasining maishiy muhit va milliy ruhiyat bilan uyg‘unligi” nomli uchinchi bobning 3.1 §da *“Ikki eshik orasi” romanida bola obrazining badiiy psixologik tasviri* masalasi tadqiq qilingan.

Asardagi milliy ruhni berish uchun marosimlar tasviri zarur o‘rin tutadi, albatta. “Ikki eshik orasi” romanida ham adib to‘y marosimi va shu kabi milliy an’analarimizga alohida ahamiyat qaratgan. Masalan, romandagi “To‘y”, “Pahlavonning beshigi” kabi qismlarda kuzatishimiz mumkin. Adib milliy marosimlarimizni yanada jonli va ta’sirli qilib tasvirlashda bola va uning tilidan unumli foydalangan. Bunda kichkintoy Muzaffar obrazini roviyga aylantirgan.

[13] Ойбек. Қуёш қораймас. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 126.
[14] Ko‘rsatilgan manba. – B. 127.
[15] Mirziyoyev Sh. Urush qatnashchilari haqidagi ma’lumotlarning to‘liq elektron bazasini yaratishning vaqti-soati keldi // Gazeta-uz. 2021.
[16] Файзий Р. Ҳазрати инсон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б. 139.

“Dadamni alanga atrofidan uch marta aylantirishdi. Kimdir eski kursi keltirib gulxan yaqiniga qo‘ydi. Yana bir odam do‘ppisiga ukpar qadalgan kichkina bolani dadamning tizzasiga o‘tqizdi. O‘sha zahoti quloqni yorgudek bo‘lib childirma bak-banglab ketdi. Ko‘ylagining oldini yoqavayron qilib yechgan doirakash bir tomonga kift tashlab g‘ayrat bilan childirmani savalay boshladi”[17].

Ushbu jumlalarni bir o‘qishda bola tilidan aytilayotganini payqash qiyin emas. Chunki bunda sodda, tushunarli, ya’ni bolalarga xos oddiy tildan foydalanib tasvirlangan.

Muallif asarda bola obrazini yoritishda kuzatuvchanlik mahoratini yaqqol namoyon qila olgan. Adib besh yoshli bolakayning dunyoqarashi, atrof-olam bilan munosabatini chinakam bola nigohi bilan ishonarli qilib tasvirlab bergan: *“Qayrag‘ochning g‘adir-budir tanasiga suyanib o‘tirarkanman, muttasil chirqillayotgan chumchuqlar qulog‘imni batang qilib yubordi. Boshimni ko‘tarib qarasam, sadaqayrag‘och atrofida g‘uj-g‘uj chumchuq. Biri uchadi, biri qo‘nadi. Vo‘y inlarining ko‘pligini! Bittasi judayam pasda ekan. Do‘ppidek inda uchta bolasining boshi ko‘rinyapti. Katta chumchuq uchib kelishi bilan uchchala bolasi sap-sariq tumshug‘ini katta ochib, baravar chirqillaydi. Ammo dadasi hech adashmaydi. Hammasiga galma-galdan ovqat beradi. Iye, dadasi ikkita ekan-ku! Bittasi uchib ketishi bilan, ikkinchisi kelyapti, bolalariga navbat bilan ovqat ulashishyapti. Bundan chiqdi, bittasi – dadasi, ikkinchisi – ammasi!”*[18].

Muallif bolalarga xos bo‘lgan soddalik, ishonuvchanlik va beg‘uborlik kabi hislatlarga tayanganini ham kuzatishimiz mumkin. Masalan, choyxonadagi kishilar kichkintoy Muzaffarni erkalatib “giroy” deb chaqirishsa, *“Mayli, giroy bo‘lsam, bo‘pmanda”*, deb o‘zicha bir ikki marta “giroylik” qilib, dadasidan dakki eshitishi, ammasi: *“ – Mushukka ozor berma, Muzaffar! Payg‘ambar orqasini silagan jonivor-a!”*[19], deyishiga qaramay, *“Hozir ko‘ramizda! Payg‘ambar silagan bo‘lsa, orqasi bilan tusharmikin, oyog‘i bilanmi?”*[20], – deya sinab ko‘rishi, qo‘shni Lazakat xolaning burnini “tovuqning tumshug‘i”ga o‘xshatishi, ammasining xafa bo‘lishini hayoliga ham keltirmay unga “qora amma” deb murojaat qilishi va uni tasvirlashda ham – *“ammam xuddi koptokka o‘xshaydi. Kichkina, dum-dumaloq. Tag‘in yozdayam qora nimcha kiyib yuradi”*[21], – deya bolalarcha sodda va tog‘riso‘zlik bilan tasvirlashida ko‘ramiz.

Oybek yozgan edi: “Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to‘qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli gaplar, qochirmalar, so‘z o‘yinlari yarqiraydi. Mana bular tilni qonli, jonli, obrazli bir til qiladi”[22]. Romanda esa xalq og‘zaki ijodi namunalari ham yetarlicha topiladi. Masalan:

---

[17] Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, zakovat, 2019. – B. 98.
[18] Ko‘rsatilgan manba. – B. 29.
[19] Ko‘rsatilgan manba. – B. 23.
[20] Ko‘rsatilgan manba. Shu bet.
[21] Ko‘rsatilgan manba. – B. 19.
[22] Ойбек. Асарлар. 9-том. – Б. 275.

Tog‘da kiyik kishnaydi ot bo‘ldim deb yor-yor.
Uyda kelin yig‘laydi, yot bo‘ldim deb yor-yor.

Dukur-dukur ot keldiyu, ot keldi,
Chiqib qarang kim keldiyu, kim keldi?...

Alla, bolam, alla-yo alla!
Shirin qo‘zim, alla-yo alla!

“Osmondagi qushni bejaydigan chevar”, “katta oxurdan yem yemoq”, “Mehnatdan kelsa, boylik, turmushing ham chiroylik!” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, maqollar, qo‘shiqlar, alla, yor-yor va aytimlardan foydalanilgan. Shuningdek, romanda bolalar tomonidan o‘ynalgan yong‘oq o‘yini, bekinmachoq, soqqa o‘yini, sopalak singasi xalq o‘yinlariga ham duch kelamiz. Bu esa asarni yanada xalq qalbiga yaqin, o‘qishli va jozibali bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Uchinchi bobning ikkinchi faslida *“Jaziramadagi odamlar” romanida “roviy bola” obrazi* masalasi tadqiq qilingan.

Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” romanida qahramon bola tilidan gapiradi. Bolaning ruhiyat qirralari turli vaziyat va nutqida ko‘zga tashlanadi. Asar tilida yozuvchi uslubi va qahramon salohiyati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Asar boshidanoq hikoya tarzida boshlanadi. Ya’ni roman qahramonlaridan hikoyachi bola Samad o‘zi haqida, otasining unga yozgan maktubi haqida gapirib, kitobxonni voqealar rivoji tomon yetaklaydi. Bunda yozuvchi o‘zgacha yondoshadi. Avvaliga, o‘quvchini jalb qilish uchun asar boshiga epigraf qilib ajoyib bir topishmoqni kiritadi.

“Bir otim bor, ajabgina,
Dumlari gajakkina.
Hali kelsa ko‘rasiz,
Kula-kula o‘lasiz.
Toshbibi chechaning javobi (no)ma’lum topishmoqlaridan”[23].

Muallif, albatta, Samad obrazini bolalik payti ruhiyati, balog‘at yoshi va yigitlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni, bola va ulg‘aygan yigitning fikrlashidagi tafovutlarni inobatga olgan holda tasvirlaydi. Masalan, Samadning bolalik syujetida uyatchan, ammo bolalarcha gapga chechanligini ko‘ramiz.

“Sizga kuyov bo‘laman deb ayt, keyin qo‘yib yuboraman”, – deydi Maysara yanga battar qiynab.

Onam imo ishoralar bilan nima deb javob berishimni tushuntiradi. Shundagina qaysarlarcha qichqiraman: “Qizingiz yo‘q-ku! ...”[24].

Bola garchi Maysara yangasidan uyalsa-da, unga “qizingiz yo‘q-ku”, deyishga jazm etadi. Bu esa bolaning vaziyatdan chiqish uchun qilgan xiylasi, uning gapga chechanligidan dalolatdir.

[23] Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2005. – Б. 3.
[24] Ko‘rsatilgan manba. – B. 19.

Maktab yoshidagi, ayniqsa, 10-11yoshdagi bolalarda ko‘p narsaga qiziqish, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, qilgan ishi biror kim tomonidan e’tirof etilsa, bundan faxrlanish kabi xislatlar uchraydi. Yozuvchi ayni shu yoshdagi bola ruhiyatini Samad va uning o‘rtoqlari misolida juda ishonarli ko‘rsatib bergan.

Samad ikki sevishgan yosh o‘rtasida xat tashuvchi, ya’ni pochtachi vazifasini o‘taydi. Bolakay kunda besh-olti marta maktub olib borishga to‘g‘ri kelsa ham bundan erinmasligini, aslo charchamaganini aytadi. Aksincha, O‘roqday mashhur “akaxon”ga sirdosh ekanligidan quvonib, unga xizmat qilishdan faxrlanadi. Buning sababini bola shunday ifodalaydi:

“O‘roqdan uncha-muncha darajasi past “akaxon”larga xizmat qiladigan do‘stlarim – Safarmurod chavandozning o‘g‘li To‘lqin, Chinor akaning o‘g‘li Durbeklar menga g‘ayirlik bilan qarashar, biroq bunday adovatlar umum ishimiz – sirli xatlarni ovloq-ovloqda ochib, hech vaqoni tushunmasakda, hijjalab-hijjalab o‘qib chiqishga hech bir to‘siq bo‘lolmas edi”[25].

Ko‘rib turganimizdek, bola uchun qanday ish qilayotgani emas, qilayotgan ishidan faxrlanish, o‘rtoqlari orasida eng yaxshi xat tashuvchi bo‘lganidan g‘ururlanish ahamiyatli. Ayniqsa, hech narsani tushunmasa-da, “nimasi bor ekan” degan o‘y-xayol va hamma narsaga qiziquvchanlik bu yoshdagi bolalarga xos jihat.

Bolalar o‘rtasida odatda biror nimaga ishontirmoqchi bo‘linganda va hech kim ishonmasa, qasam ichish jarayoniga o‘tiladi. Bunda odatda ular turli xil narsa va buyumlardan “qurol” sifatida foydalanishadi. Masalan, hamma uchun aziz va qadrli ne’mat hisoblangan non ham vosita quroliga aylanishi mumkin. Chunki har bir bolaga non aziz ne’mat ekanligi, uni uvol qilmaslik, garchi nonni xor qilgan odam o‘zi ham xor bo‘lishi haqidagi nasihatlar yoshligidan singdirib kelinadi. Bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni, o‘yin va boshqa vaziyatlarda ishga tushadigan elementlarni kuzatgan va yaxshi bilgan yozuvchi buni asar syujetiga ham kiritgan.

“ – Abdulla aka savxo‘zimizdagi eng boy, eng zo‘r odam. U boshqalar oldida yig‘lashga uyalgan... Uyida o‘kirib yuborganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim-ku?! Aldasam, mana, non ursin.

Dovdir do‘stimiz so‘nggi so‘zini ayta-ayta belidagi tushlik uchun non tugilgan belbog‘ini yechib, qo‘liga olib avval o‘ng manglayiga so‘ng hayajonidan tupik ko‘pirib turgan qalin lablariga tekizib o‘pdi. Endi To‘lqinga ishonmaslikning hech iloji yo‘q edi! U bizning nazdimizdagi eng muqaddas qasamni tilga oldi”[26]. Ko‘rib turganimizdek, non ishtirokidagi qasam juda ahamiyatli, ya’ni bola uchun bu “eng muqaddas qasam”dir.

“O‘sha kecha biz ikki do‘st o‘zimizcha erkakchasiga qo‘l tashlashdik. “Non ursin”, “Ayol bo‘lay” kabi jaydari qasamlarga ko‘nglimiz to‘lmay, oshxonadan oshpichoqni o‘g‘rincha keltirib Ashurning kavkazcha usulini qo‘lladik. Oshpichoqni galma-gal qo‘lga olib, lab-dahanimizga tekizib, “do‘stimga xiyonat qilsam, shu tig‘day o‘lay” qabilida qasamlar ichdik”[27]. Bu

[25] Бўрихон Л. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2005. – Б. 29.
[26] Ko‘rsatilgan manba. Shu bet.
[27] Ko‘rsatilgan manba. – B. 207.

yerda esa vosita sifatida oshpichoq ishga tushyapti. Bu esa qahramonning o‘zi ham ta’kidlaganidek, yanada jiddiyroq vaziyatni anglatadi. Ya’ni nondan ham kuchliroq qurol ishga tushadi.

Shu o‘rinda yozuvchi kattalar adabiyotidagi asarga nega aynan bolani roviy qilib tanladi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Vaholanki, romanni asarning bosh qahramonlaridan bo‘lgan Lolaxon orqali ham hikoya qilish mumkin edik. Lekin Luqmon Bo‘rixon unday qilmadi. Hikoyachi qilib bola obrazini tanladi. Agar yozuvchi shunday qilganida, o‘zi ko‘zlagan maqsadga yeta olmagan bo‘lar edi. Ya’ni romanning mohiyatini ochib bera olmas edi.

Romandagi hikoyanavis bolaning ahamiyati shundaki, u orqali adib o‘z ichki kechinmalarini, atrofdagilarga, jamiyatga munosabatini bemalol bildira olgan. Bunda albatta, to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, asosan, Samad yoki boshqa personajlar tilidan foydalangan. Bu esa, asarning yanada ishonchli chiqishini ta’minlagan.

XULOSA

Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi tadqiqiga bag‘ishlangan ushbu tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy-nazariy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Badiiy adabiyotda bola va bolalik timsolining obrazlar tizimidagi o‘rni ko‘p qirralidir. U orqali asarda muallif o‘z maqsadini amalga oshiradi. Yirik janrlardan biri hisoblangan romandagi bola obrazini tadqiq etish va o‘rganish o‘z o‘rnida ushbu obrazning badiiy adabiyotga kirib kelish tarixi, romanchilikdagi o‘rni va ahamiyati, funksiyasi, obrazlilik xususiyatlari va poetik takomilini yaxlit kuzatish imkonini beradi.

2. Bola tasviri muqaddas kitoblar, jumladan, Qur’oni karim va hadislarda poklik, beg‘uborlik, samimiylik ramzi sifatida payg‘ambarlarning bolalik syujetlarini yoritishda namoyon bo‘ldi. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham qahramonlarning bolaligini tasvirlash jarayonida ahamiyatlidir. Shuningdek, ayni obraz mumtoz adabiyotda qahramonlar bolaligi syujetlarida, ma’shuqa qalbining go‘zalligi va pokligini tasvirlashda aynan bolaga nisbat berilishi bilan ham ahamiyatli sanaladi. Poklik ramzi sifatida esa bola obrazi keyingi davr adabiyotiga ham ko‘chib o‘tdi va takomillashib, ijtimoiylashib bordi. O‘rta asrlar adabiyotida bola obrazi keng ko‘lamda ishlatilmagani kuzatildi. Bu davrga kelib, bola va uning hayoti asarlar uchun obyekt vazifasini bajara olmadi. Toki, XVII asrning boshlariga qadar bolalar jamiyatning ko‘zga tashlanmaydigan qatlami sifatida qaraldi. Xuddi shu asrlardan e’tiboran gumanizm g‘oyalari shakllanib, asta-sekinlik bilan bola ham jamiyatning faol ishtirokchisiga aylandi.

3. Bola obrazi muallifning estetik va falsafiy qarashlarini ifodalash, jamiyatning ma’naviy-axloqiy muammolarini ochib berish, insonning ichki dunyosini yoritish hamda eng pokiza his-tuyg‘ularni poetik aks ettirishda muhim vosita sanaladi. Shundan kelib chiqib, roman obrazlar tizimidagi bola obrazining badiiy funksiyasi sifatida quyidagilar belgilandi: a) ma’naviy-

axloqiy ideallarni ifodalash; b) jamiyatga xos nozik muammolarni poetik aks ettirish; d) metaforik idroklash yoki badiiy kodlash; e) syujet oqimi dinamikasini tashkillash va dramatizmni kuchaytirish; f) empatiya uyg‘otish va estetik vazifa kabilar.

4. O‘zbek romanchiligida bola obrazining shakllanishi va rivojlanishi mahalliy-madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekslarga chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu obrazning evolyutsiyasi uzoq tarixni o‘z ichiga oladi. 20-asr adabiyotida bolaning jamiyatdagi o‘rni, oilaviy munosabatlar va ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni aks ettirishda, ayniqsa, kuchaydi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotining dastlabki namunasi sanalgan Abdulla Qodiriyning “Uloqda” hikoyasida bola obrazi asosiy qahramonga aylandi. Bu esa obrazning yanada takomillashishiga turtki bo‘ldi.

5. Birinchi o‘zbek romani hisoblangan “O‘tkan kunlar”da bola obrazi epizodik tarzda kelgan bo‘lsa-da, muallif u orqali davrning dolzarb muammolarini aks ettirishda foydalandi. “Mehrobdan chayon” romanida esa bola obrazi nafaqat davr muammolarini yoritish, balki asar g‘oyasini tashish va eng ahamiyatlisi qahramonning bolalik syujeti orqali muallifning biografik xususiyatlarini ochishda muhim bo‘ldi. “Mehrobdan chayon” romanida bola obrazi turli xil aspektda kelgan bo‘lib, qahramonning bolaligi, “vositachi” bola, “ayg‘oqchi” bola, ijtimoiy davr muammolari ta’siridagi bola va qahramon xarakterini yoritishdagi “ko‘makchi” vazifalarida namoyon bo‘ldi.

6. Hozirgi o‘zbek romanlaridagi bola obrazi turli aspektlarda tasvirlanganligidan kelib chiqib, u milliy tanazzul davri va mustamlaka bolasi obrazi, qashshoq oila bolasi obrazi, urush bolasi obrazi, urush ortidagi bola obrazi, roviy bola obrazi kabi turli tasniflarga ajratildi va o‘zining obrazlilik xususiyatiga ega bo‘ldi.

7. Oybekning “Quyosh qoraymas” romanida bola obrazlari epizodik bo‘lsa-da, urushning “dahshati”ni aks ettirishda, qahramon xarakterini ochishda va urush tufayli bolalikning erta boy berilishini yoritishda o‘z ifodasini topadi. Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanida tasvir etilgan bola obrazlari ham urushdan aziyat chekkan, bor-yo‘g‘ini, yaqinlarini va eng yomoni bolaligini yo‘qotgan bolalar qismatini ochib berishda katta ahamiyatga ega sanaladi.

8. O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ham bir nechta bola obrazlari turli xil vazifalarda kelib, qahramonning bolalik syujetini yorituvchi va asar voqealarini hikoya qiluvchi bola obrazi, front orti mashaqqatlari va azoblarida namoyon bo‘luvchi bola obrazi va urush ta’sirida qolgan bola obrazlari tasvirlarida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, asarda milliy psixologizm va adib ruhiyatining bolada aks etishi kuzatiladi.

9. L.Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida voqealarni boshdan oyoq hikoya qiluvchi “roviy bola” obrazi tasvir etilgan. Muallif chetdan turib jamiyatdagi vaziyatni, holatni kuzatadi, unga bola bo‘lib baho beradi va o‘z munosabatini bildiradi. Bunda, albatta, psixologizmdan foydalanish imkoniyati oshadi.

Umuman, bola obrazi roman obrazlari tizimida katta ahamiyatga ega. Chunki bu obraz orqali muallif badiiy g‘oyasini amalga oshiradi. Ya’ni, davr va ijtimoiy muhitdagi mummolarni yoritish, unga munosabat bildirish, jamiyatga oyna ko‘rsatishda bola obrazidan foydalanish ancha samaralidir.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12. 2019.Fil.19.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ISMONOVA YORKINOY ABDUMUTALIB KIZI

THE POETIC FUNCTION OF THE CHILD'S IMAGE IN CONTEMPORARY UZBEK NOVELS

10.00.02 – Uzbek literature (20th Century Uzbek Literature and Contemporary Literary Process)

DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Tashkent – 2025

The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2023.3.PhD/Fil3744.

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and Information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Jurakulov Uzok Haydarovich** doctor of philological sciences, professor
Official opponents:	**Kuvvatova Dilrabo Khabibovna** doctor of philological sciences, professor
	Ahmedov Hoshimjon Hakimovich doctor of philological sciences, docent
Leading organization:	**Chirchiq state pedagogical university**

The defense of dissertation will take place on " 1 " may 2025 at 16:00 at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Phone number: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under № 342). (Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone number: (99871) 281-42-44)

The abstract of dissertation is distributed on " 19 " 04 2025.

(Protocol at the register № 3 of " 19 " 04 2025).

H.A. Dadaboyev
Chairman of the scientific council awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

Q.U.Pardayev
Scientific secretary of the scientific council awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

N.A. Jabborov
Chairman of the scientific seminar at the scientific council awarding scientific degrees, doctor of philological sciences, professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

The topicality of the dissertation. In the history of world literature, various examples of artistic images have emerged and continue to develop to this day. Specifically, the image of the child within the system of artistic images has become more prominent and has gained its significance in literature up to the present. One of the pressing issues facing modern literary studies is the gradual exploration of the poetic function, place, and significance of this image.

In world literary studies, the research and application of the image of the child and the theme of childhood date back to the second half of the 18th century and the early 19th century. By the middle of the 19th century, it had significantly evolved. The child becomes a central figure in all spheres of social and cultural life. Many writers, contrasting the views of children and adults, attempt to achieve truth through the "child's point of view of the world". This increases the interest in the image of the child within the system of artistic images.

One important feature of Uzbek novel-writing is its courageous approach to addressing the issues of the time. When discussing the problems of life and their artistic embodiment, issues such as the discovery of the period and the character, the diversity of characters, and the social idea and its artistic interpretation become central. Based on these issues, trends that are characteristic and, in a sense, new, are emerging in our contemporary novel. In the early decades of our literature, some characters who were depicted as being entirely dedicated to social activity, neglecting their personal lives, might have passed without leaving a trace in their activities. However, nowadays, there is a growing focus on the individual, and the demand to not remain indifferent to the flaws in a person's life requires showing their life in its complexity. This trend is linked to the growing attention to moral education, national values, and a genuine depiction of the human complexities, with an increasing effort to enhance the educational and social significance of the work. In this context, the image of the child has come to the forefront. Such issues can be analyzed through the novels of writers like Oybek, Rahmat Fayziy, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O'tkir Hoshimov, Tog'ay Murod, and Luqmon Bo'rixon. Moreover, "As long as literature, art, and culture live, the nation and the people, and all of humanity, live meaningfully". Therefore, the study of the relationship between the evolving literature of today and the artistic images reflected in it, as well as their connection to our national traditions, is one of the important and urgent issues facing Uzbek literary studies.

The Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 16, 2017, No. PF-4958 "On Further Improvement of Postgraduate Education", the Decree of October 8, 2019, No. PF-5847 "On Approval of the Concept of Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", the Decree of October 21, 2019, No. PF-5850 "On Measures to Significantly Increase the Influence and Status of the Uzbek Language as the State Language", the Resolution of September 13, 2017, No. PQ-3271 "On a Complex Program of Measures for the Development of the Book Publishing and Distribution System, as well as Promoting and Increasing the Culture of Reading

and Book Lover Activities", the Resolution of April 5, 2018, No. PQ-3652 "On Measures to Further Improve the Activities of the Writers' Union of Uzbekistan", the Speech of the President of the Republic of Uzbekistan during the Meeting with Creative Intellectuals on August 3, 2017, and his instructions on increasing the influence of literature during his visit to the Writers' Alley in Tashkent on May 20, 2020, as well as other regulatory legal acts related to this activity, determine tasks that, to a certain extent, are addressed in this dissertation research.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

The degree to which the problem has been studied. A number of research studies have been conducted on Uzbek novels. However, in the doctoral and candidate dissertations, monographs, and articles of literary scholars such as U.Normatov, H.Umurov, I.Yokubov, U.Jurakulov, B.Karimov, Z.Pardayeva, A.Rahimov, A.Kahramonov, P.Kenjayeva, K.Yuldoshev, U.Xujamkulov, M.Boboxonov[28], certain aspects and details of this issue have been discussed.

The image of the child has been one of the central themes in both Uzbek and world literature for many years. In world literature, particularly in the doctoral dissertations of Russian literary scholars such as T.Cherkasova, A.Matveyeva, N.Romanova, Y.Kamardina and Y.Shestakova the theme of the child's image and childhood has also been explored[29]. In the dissertations and monographs of Uzbek literary scholars such as R.Barakayev, A.Kosimov, S.Babayeva, R.Tulabayeva, R.Umurzakov [30] the image of the child has been studied as the subject of research,

---

[28] Норматов У. Болакай нигоҳида замон талатўплари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2012; Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002; Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon-business, 2021; Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури, – Тошкент: Nurafshon-business, 2020; That author. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; That author. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2015; That author. XX аср ўзбек адабиётшунослигида талқин муаммоси (Қодирийшунослик асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2002; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романчилигининг тараққиёт тамойиллари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – Б. 55; That author. Бадиий-эстетик тафаккур ривожи ва ўзбек романчилиги. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 323; Қаҳрамонов А. Меҳробдан чаён романи поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Йўлдошев Қ. Романда шахс тасвири // Шарқ юлдузи, 2016. 11-сон. – Б. 119; Хўжамқулов У. Бадиий портретда миллий руҳ ифодаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. 5-сон, – Б. 68; Бобохонов М. Ҳозирги ўзбек қиссачилигида психологизм: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

[29] Черкасова Т. Типология детского характера в творчестве Чарльза Диккенса. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2007; Матвеева А. Мир ребенка в творчестве Чарльза Диккенса в контексте онтологической поэтики. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009; Романова Н. Повесть Л.Н.Толстого «Детство» в контексте русских художественно-автобиографических повестей середины XIX века. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2009; Камардина Ю. Роман Ч.Диккенса «Жизнь и приключения Николаса Никльби» как роман воспитания: проблемы жанровой поэтики. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2011; Шестакова Е. Детство в системе русских литературных представлений о человеческой жизни XVII-XIX столетий. Дисс. ... канд. филол. наук. – А., 2007.

[30] Баракаев Р. XX аср бошларида ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994; Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-аҳлоқий категория сифатида

with a focus on the gradual development and genesis of the child's image, analyzed from a comparative perspective. However, in contemporary Uzbek novels, the image of the child and its poetic function have not been studied in a specialized monographic context.

The relationship of the topic of the dissertation research with the plan of the research work of the higher educational or research institution where the dissertation was carried out. The dissertation work was carried out within the framework of the scientific research plan of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i "The General Theoretical Issues of Comparative-Typological Study of World and Uzbek Literature".

The purpose of the research is to elucidate the factors behind the formation of the child's image, its artistic functions, role, and significance in the novel genre, using the example of 20 th-century Uzbek novels.

The research tasks are as follows:

the research aims to examine the historical-aesthetic foundations, functions, and the process of studying the image of the child in artistic-historical, artistic-social, philosophical, psychological, and romantic novels, as well as to identify the role and significance of the child's image in 20th-century Uzbek novels. It also seeks to provide a scientific description and classification of these images;

the study will define the role of biographical factors in the emergence of the child's image in the novels of Abdulla Qodiriy, Oybek, and Rahmat Fayziy;

Additionally, the research will analyze the poetic relationship between the image of the child and the family environment, the realities of the time, and national psychology, based on the analysis of the novels "Between Two Doors" (Ikki eshik orasi) and "People in the Desert" (Jaziramadagi odamlar);

Finally, the research will draw theoretical conclusions regarding the poetic function of the child's image in the history of 20th-century Uzbek novels and modern novel examples.

As the object of the research, 20th-century Uzbek novels have been selected, specifically Abdulla Qodiriy's "Scorpion from the Sanctuary" (Mehrobdan chayon), Oybek's "The Sun Never Sets" (Quyosh qoraymas), Rahmat Fayziy's "The Man of God" (Hazrati inson), Otkir Hoshimov's "Between Two Doors" (Ikki eshik orasi), and Luqmon Bo'rixon's "People in the Desert" (Jaziramadagi odamlar).

The subject of the research is the image of the child in contemporary Uzbek novels, the tasks assigned to it, the unique aspects of the child's psyche, the author's "I" in the child's image, the writer's concept, and the peculiarities of the protagonist's psychology.

